NAMANGAN VILOYATI POP TUMANI HOKIMINING

QARORI

2024-yil 25-oktabr | 589-6-84-Q/24 | Pop tuman hokimligi

IJTIMOIY MUHOFAZAGA MUHTOJ, ISH TOPISHDA QIYNALAYOTGAN VA MEHNAT BOZORIDA TENG SHARTLARDA RAQOBATLASHA OLMAYDIGAN SHAXSLARNI ISHGA JOYLASHTIRISH UCHUN ISH O'RINLARINING 2025 YIL UCHUN BAND QILIB QO'YISH TO'G'RISIDA

"Aholi bandligi to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonunining 12-moddasi, "Nogironligi bo'lgan shaxslarning huquqlari to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonunining 14-moddasi, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 5 dekabrdagi 965-son qarori bilan tasdiqlangan "Ijtimoiy muhofazaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslarni ishga joylashtirish uchun ish o'rinlarining eng kam sonini belgilash va zaxiraga qo'yish tartibi to'g'risida"gi Nizom, shuningdek O'zbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirining 2019 yil 10 maydagi 19-2019-B-son buyrug'i bilan tasdiqlangan "O'zbekiston Respublikasi Bandlikka ko'maklashish davlat jamg'armasi mablag'lari hisobidan subsidiya va grantlar ajratish tartibi to'g'risida"gi Nizomga (ro'yxat raqami 3163, 2019 yil 31 may) asosan, ijtimoiy muhofazaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslarni ishga joylashtirish maqsadida tumanda 2025 yil uchun ish o'rinlarini band qilib qo'yish maqsadida

Q A R O R Q I L A M A N

1. Tumandagi ijtimoiy muhofazaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslarni ishga

joylashtirish uchun ish joylarining eng kam miqdorini belgilash bo'yicha komissiya tarkibi 1-ilovaga muvofiq;

2025 yilda mazkur toifadagi shaxslar uchun ish joylarining eng kam miqdori belgilangan korxonalar ro'yxati 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

2. "Aholi bandligi to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonunining 12-moddasiga asosan tumanda ijtimoiy muhofazaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslar (keyingi o'rinlarda ijtimoiy muhofazaga muhtoj shaxslar deb yuritiladi) uchun ish o'rinlarining eng kam miqdori (2-ilova) xodimlarning ro'yxat bo'yicha o'rtacha 377 nafar ish o'rnini tashkil etadigan 7,0 foiz miqdorida, shu jumladan:

- nogironlar uchun 3 foiz (162 nafar, yuqorida ko'rsatilgan ish o'rinlariga tumanda nogironlar ishga joylashish bo'yicha talab 85 ta bo'lganligi sababli, kelgusida 77 ta ish o'rinni umumiy o'rta va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalarini tamomlagan yoshlar, shuningdek, oliy ta'lim muassasalarining davlat grantlari bo'yicha ta'lim olgan bitiruvchilari uchun band etib qo'yilsin);

- umumiy o'rta va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalarini tamomlagan yoshlar, shuningdek, oliy ta'lim muassasalarining davlat grantlari bo'yicha ta'lim olgan bitiruvchilari uchun 2,3 foiz (125 nafar);

- o'n to'rt yoshgacha va nogiron bolalari bo'lgan yolg'iz va ko'p bolali ota-onalar uchun 0,3 foiz (14 nafar);

- pensiyaoldi yoshidagi shaxslar uchun 0,10 foiz (5 nafar);

- safarbarlik chaqiruvi zahirasida xizmatni o'tagan va O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari saflaridan muddatli harbiy xizmatdan bo'shatilgan shaxslar uchun 0.4 foiz (22 nafar);

- jazoni ijro etish muassasalaridan ozod qilingan yoki sudning qaroriga ko'ra tibbiy tusdagi majburlov choralari qo'llanilishidan ozod qilingan shaxslar uchun 0,3 foiz (17 nafar);

- ijtimoiy muhofazaga muhtoj shaxslarning boshqa toifalari,

shu jumladan odam savdosi qurbonlari uchun 0,0 foiz (0 nafar),

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Oilalarni mustahkamlash va xotin-qizlarning faolligini oshirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" 2023-yil 21-dekabrdagi PQ-401-son qarorining 8.2-bandida, 2024-yil 1-yanvardan boshlab tashkilot (ish beruvchi) tomonidan ish o'rinlari

zaxiraga qo‘yiladigan ijtimoiy himoyaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslar toifalariga oilaviy (maishiy) zo‘ravonlik natijasida jabrlanganlarni ham kiritish vazifasi belgilangan.

Qaror ijrosini ta’minlash maqsadida, oilaviy (maishiy) zo‘ravonlik natijasida jabrlanganlar aholining ijtimoiy ehtiyojmand toifasi uchun 0,6 foiz (33 nafar); miqdorida ish o′rinlari zahirasi belgilansin.

3. Ijtimoiy muhofazaga muhtoj shaxslar uchun ish o′rinlari sanitariya-gigiena me′yorlariga va xodim o′z mehnat majburiyatlarini to′siqsiz bajarishini ta′minlaydigan mehnat qilish sharoitlariga, shu jumladan, quyidagilarga muvofiq bo′lishi kerak:

- 14 yoshgacha va nogiron bolalari bo′lgan yolg′iz va ko′p bolali

ota-onalar uchun – bolalarni tarbiyalash va mehnat majburiyatlari bo′yicha majburiyatlar bajarilishini birga qo′shib olib borish imkonini beruvchi ishning moslashuvchan jadvaliga ega;

- umumiy o′rta va o′rta maxsus, kasb-hunar ta′limi muassasalarini tamomlagandan keyin kasbni egallagan yoshlar, shuningdek, oliy ta′lim muassasalarining davlat grantlari bo′yicha ta′lim olgan bitiruvchilari uchun – ularning kasbiy tayyorgarligiga muvofiq;

- safarbarlik chaqiruvi zahirasida xizmatni o′tagan va O′zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari saflaridan muddatli harbiy xizmatdan bo′shatilgan shaxslar uchun – ularning professional tayyorgarligiga mos;

- nogironlar uchun – mehnat sharoitlari bo′yicha attestatsiyadan o′tkazilgan va xodimga ularning sog′lig′i holatini va mehnat faoliyatiga to′g′ri kelmaydigan belgilangan zidliklar hisobga olingan holda mehnat operatsiyalarini to′siqsiz bajarish imkonini beradigan;

- pensiyaoldi yoshidagi shaxslar uchun – ularning kasbiy tayyorgarligiga mos bo′lgan yoki maxsus malakani talab etmaydigan;

- jazoni ijro etish muassasalaridan yoki sudning qaroriga ko′ra tibbiy tusdagi majburlov choralari qo′llanilgan shaxslar uchun – ularning kasbiy tayyorgarligini hisobga olgan holda yoki maxsus malakani talab etmaydigan;

- odam savdosi qurbonlari uchun – ularning kasbiy tayyorgarligini hisobga olgan holda yoki maxsus malakani talab etmaydigan;

-oilaviy (maishiy) zo‘ravonlik natijasida jabrlangan shaxslar uchun – ularning kasbiy tayyorgarligini hisobga olgan holda yoki maxsus malakani talab etmaydigan;

4. Quyidagi ish o′rinlari band qilib qo′yiladigan kasblar va lavozimlar etib belgilansin: muhandis, iqtisodchi, hisobchi, huquqshunos, zootexnik, agronom, shifokor, hamshira, kichik tibbiy xodim, ish yurituvchi, o′qituvchi, tarozibon, elektrik, farrosh, o′tyoqar, obodonlashtirish ishchisi, omborchi, EHM operatori, yukchi, ishchi, bog′bon, qorovul, o′qituvchi.

5. Tumandagi mavjud korxona, tashkilot va muassasalarning rahbarlari: O′zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 5 dekabrdagi 965-son qarori bilan tasdiqlangan “Ijtimoiy muhofazaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslarni ishga joylashtirish uchun ish o′rinlarining eng kam sonini belgilash va zahiraga qo′yish tartibi to′g′risida”gi Nizomga muvofiq ushbu qarorning 2-ilovasida ko′rsatilgan ish o′rinlari tashkil etilishini ta′minlasin;

2025 yil boshlanishidan kamida 10 kun oldin, zaxiraga qo′yiladigan umumiy ish o′rinlari sonining kamida 25 (yigirma besh) foizi ijtimoiy muhofazaga muhtoj shaxslarni ishga joylashtirish uchun zaxiraga qo′yilishini va tayyorligini ta′minlasin, shuningdek, bu haqda yil boshlangunga qadar tuman Kambag′allikni qisqartirish va badlikka ko′maklashish bo′limini xabardor qilsin;

- ijtimoiy muhofazaga muhtoj shaxslar uchun ish o′rinlarining qolgan qismini zaxiraga qo′yish tashkilot (ish beruvchi) tomonidan 2025 yilning birinchi choragi mobaynida ta′minlasin, bu haqda tuman Kambag′allikni qisqartirish va badlikka ko′maklashish bo′limiga birinchi chorak tamom bo′lgandan keyin 10 kundan kechikmay xabardor qilsin;

- har oyda hisobot oyidan keyingi oyning 5-kunigacha tuman Kambag′allikni qisqartirish va badlikka ko′maklashish bo′limiga “Ijtimoiy muhofazaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslarni ishga joylashtirish uchun ish o′rinlarining eng sonini belgilash va zahiraga qo′yish tartibi to′g′risida”gi Nizomning 5-ilovasiga muvofiq shakl bo′yicha axborot taqdim etsin;

- ijtimoiy muhofazaga muhtoj shaxslarni ishga joylashtirish uchun ish o′rinlari tayyorligi to′g′risida axborot taqdim etilmasligi, teng darajada zaxiraga qo′yiladigan ish o′rinlarining belgilangan soni hisobiga ishga joylashtirish uchun ish o′rinlarining amalda tayyor emasligi tuman Kambag′allikni qisqartirish va badlikka

koʻmaklashish boʻlimi tomonidan tuman hokimining qarori bajarilmasligi sifatida qaralishi lozimligi qayd etilsin.

6. Tuman hokimining ijtimoiy muhofazaga muhtoj shaxslar uchun ish oʻrinlarining eng kam sonini belgilash boʻyicha ushbu qarori bajarilmaganda, shuningdek, bunday shaxslarni ishga qabul qilish asossiz ravishda rad etilganligi uchun tashkilot, korxona va muassasalarning mansabdor shaxslariga nisbatan Oʻzbekiston Respublikasining amaldagi qonun hujjatlariga asosan maʻmuriy javobgarlik belgilanganligi alohida qayd etilsin.

7. Tuman Kambagʻallikni qisqartirish va badlikka koʻmaklashish boʻlimi “Oʻzbekiston Respublikasi Bandlikka koʻmaklashish davlat jamgʻarmasi mablagʻlari hisobidan subsidiya va grantlar ajratish tartibi toʻgʻrisida”gi Nizomga (roʻyxat raqami 3163, 2019 yil 31 may) asosan subsidiyalar ajratib berish tartibi amaliyotga joriy etilganligini hisobga olib, ijtimoiy ehtiyojmand aholi qatlamlariga mansub shaxslarni kvotalangan eng kam sondan ortiq miqdorda ishga qabul qilgan tashkilotlarga – har bir xodim uchun 12 oy davomida har oyda bazaviy hisoblash miqdorining 2 baravari miqdorida haq toʻlashni taʻminlansin.

8. Tuman Kambagʻallikni qisqartirish va badlikka koʻmaklashish boʻlimi boshligʻi (D.Nomazov) mazkur qarorni besh kun muddatda qarorning 2-ilovasida koʻrsatilgan tashkilot, korxona va muassasalarning rahbarlari eʻtiboriga yetkazilishini taʻminlasin.

9. Tuman hokimining 2023 yil 23 oktabrdagi 433-6-84-Q/23-sonli qarori oʻz kuchini yoʻqotgan deb hisoblansin.

10. Mazkur qaror “Pop tongi” gazetasida rasman eʻlon qilinsin va tuman hokimligining rasmiy veb saytiga joylashtirilsin.

11. Ushbu qaror rasman eʻlon qilingan kundan boshlab 3 oydan keyin kuchga kiradi.

12. Mazkur qaror ijrosini nazorat qilish tuman hokimining birinchi oʻrinbosari O’.Yo’ldashev zimmasiga yuklatilsin.

Tuman hokimi **A.Sultanov**

Pop tuman hokimining
2024-yil 25-oktabrdagi
589-6-84-Q/24-son qaroriga
1-ilova

Tumanda ijtimoiy muhofazaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslarni ishga joylashtirish uchun ish o‘rinlarining eng kam sonini belgilash bo‘yicha komissiya tarkibi

Komissiya raisi:

1.	**O’.Yo’ldashev**	-	Tuman hokimining birinchi o‘rinbosari
Komissiya raisining o’rinbosari:			
2.	**D.Nomazov**	-	Tuman kambag‘allikni qisqartirish va badlikka ko‘maklashish bo‘limi boshlig‘i
Komissiya a’zolari:			
3.	**I.Xoliqov**	-	Tuman hokimininng o‘rinbosari
4.	**A.Xusanov**	-	Tuman maktabgacha va maktab ta’limi bo‘limi boshlig‘i
5.	**T.Muslimov**	-	Tuman mudofa ishlari bo‘limi boshlig‘i
6.	**SH.Ergashova**	-	Tuman hokimligi huzuridagi jazoni ijro etish joylardan bo‘shatilgan shaxslarda ijtimoiy ko‘nikmalar hosil qilish markazi rahbari
7.	**B.Nosiraliyev**	-	Tuman “Inson” ijtimoiy xizmatlar markazi boshlig‘i
Komissiya kotibi:			
7.	**A.Raximov**	-	Tuman kambag‘allikni qisqartirish va badlikka ko‘maklashish bo‘limining ishsizlarni ishga joylashtirish va ishsizlarni xisobga olish bo‘yicha bek ofis bosh mutaxassisi

Izoh: Komissiya a’zolari boshqa ishga o‘tgan taqdirda, ularning o‘rniga yangi tayinlangan shaxslar komissiya a’zosi hisoblanadi.

Pop tuman hokimining
2024-yil 25-oktabrdagi
589-6-84-Q/24-son qaroriga
2-ilova

Tumandagi ijtimoiy muhofazaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslar uchun ish joylarining eng kam miqdori belgilangan korxonalar va tashkilotlar

R O‘ Y X A T I

№	Tashkilotlar	Jami ishlovchilar soni	Yaratilishi lozim bo’lgan ish o’rinlar soni	Шу жумладан															
				Nogironlar uchun (3 foiz)		Umumiy o’rta va o’rta maxsus, kasb-hunar ta’limi muassasalarini tamomlagan yoshlar, shuningdek, oliy ta’lim muassasalarining davlat grantlari bo’yicha ta’lim olgan bitiruvchilari uchun		O’n to’rt yoshgacha va nogiron bolalari bo’lgan yolg’iz va ko’p bolali ota-onalar uchun		Pensiyaoldi yoshidagi shaxslar uchun		Safarbarlik chaqiruvi zaxirasida xizmatni o’tagan va O’zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari saflaridan muddatli harbiy xizmatdan bo’shatilgan shaxslar uchun		Jazoni ijro etish muassasalaridan ozod qilingan yoki sudning qaroriga ko’ra tibbiy tusdagi majburlov choralar qo’llanilishidan ozod qilingan shaxslar uchun		Ijtimoiy muhofazaga muhtoj shaxslarning boshqa toifalari, shu jumladan odam savdosidan qurbonlari uchun		oilaviy (maishiy) zo'ravonlikdan jabrlanganlar учун	
				Soni	Foizi	Soni	Foizi	Soni	Foizi	Soni	Foizi	Soni	Foizi	Soni	Foizi	Soni	Foizi	Soni	Foizi
1	Pop Tibbiyot birlashmasi	1500	105,0	45,0	3,0	33	2,5	2	0,1	0	0,0	5	1,0	5	0,3	0	0,0	15	1,0

2	Pop tuman obodonlashtirish boshqarmasi	300	21,0	9,0	3,0	4	1,3	2	0,7	1	0,3	1	0,3	1	0,3	0	0,0	3	1,0
3	POP TUMAN IRRIGATSIYA BO'LIMI	65	4,6	2,0	3,0	1	1,5	0	0,0	1	0,9	0	0,0	0	0,0	0	0,0	1	1,5
4	"QAMCHIQAVT OYO'L" IYF UK	200	14,0	6,0	3,0	4	2,0	0	0,0	1	0,5	2	1,0	1	0,5	0	0,0	0	0,0
5	"POP SEMENT" MAS'ULIYATI CHEKLANGAN JAMIYATI	70	4,9	2,1	3,0	3	4,0	0	0,0	0	0,0	0	0,0	0	0,0	0	0,0	0	0,0
6	"SHOFIRKON EKVATORIAL TEKS" MAS'ULIYATI CHEKLANGAN JAMIYATI	200	14,0	6,0	3,0	3	1,5	2	1,0	0	0,0	0	0,0	0	0,0	0	0,0	3	1,5
7	ATLES POP TEXTILE mas`uliyati cheklangan jamiyati	65	4,6	2,0	3,0	1	1,5	1	0,9	0	0,0	0	0,0	0	0,0	0	0,0	1	1,5
8	ACTIVE CHORKESAR LIGHT mas`uliyati cheklangan jamiyati	100	7,0	3,0	3,0	2	2,0	1	1,0	0	0,0	0	0,0	0	0,0	0	0,0	1	1,0
9	7-sonli MTT	30	2,1	0,9	3,0	1	4,0	0	0,0	0	0,0	0	0,0	0	0,0	0	0,0	0	0,0
10	36-sonli MTT	35	2,5	1,1	3,0	1	4,0	0	0,0	0	0,0	0	0,0	0	0,0	0	0,0	0	0,0
11	49-sonli MTT	30	2,1	0,9	3,0	1	4,0	0	0,0	0	0,0	0	0,0	0	0,0	0	0,0	0	0,0
12	15-sonli MTT	30	2,1	0,9	3,0	1	4,0	0	0,0	0	0,0	0	0,0	0	0,0	0	0,0	0	0,0

13	24-sonli MTT	60	4,2	1,8	3,0	1	2,3	0	0,0	0	0,0	0	0,0	0	0,0	0	0,0	1	1,7
14	31-sonli MTT	30	2,1	0,9	3,0	1	4,0	0	0,0	0	0,0	0	0,0	0	0,0	0	0,0	0	0,0
15	32-sonli MTT	30	2,1	0,9	3,0	1	4,0	0	0,0	0	0,0	0	0,0	0	0,0	0	0,0	0	0,0
16	40-sonli MTT	30	2,1	0,9	3,0	1	4,0	0	0,0	0	0,0	0	0,0	0	0,0	0	0,0	0	0,0
17	46-sonli MTT	30	2,1	0,9	3,0	1	4,0	0	0,0	0	0,0	0	0,0	0	0,0	0	0,0	0	0,0
18	47-sonli MTT	30	2,1	0,9	3,0	1	4,0	0	0,0	0	0,0	0	0,0	0	0,0	0	0,0	0	0,0
19	48-sonli MTT	30	2,1	0,9	3,0	1	4,0	0	0,0	0	0,0	0	0,0	0	0,0	0	0,0	0	0,0
20	50-sonli MTT	60	4,2	1,8	3,0	1	1,7	0	0,0	0	0,0	1	2,3	0	0,0	0	0,0	0	0,0
21	51-sonli MTT	30	2,1	0,9	3,0	0	0,0	0	0,0	0	0,0	1	4,0	0	0,0	0	0,0	0	0,0
22	57-sonli MTT	30	2,1	0,9	3,0	1	4,0	0	0,0	0	0,0	0	0,0	0	0,0	0	0,0	0	0,0
23	2-sonli maktab	60	4,2	1,8	3,0	1	1,7	0	0,0	0	0,0	0	0,0	1	2,3	0	0,0	0	0,0
24	10-sonli ixtisoslashtirilgan maktab	160	11,2	4,8	3,0	3	1,9	1	0,9	0	0,0	1	0,6	0	0,0	0	0,0	1	0,6
25	12-sonli maktab	30	2,1	0,9	3,0	1	4,0	0	0,0	0	0,0	0	0,0	0	0,0	0	0,0	0	0,0
26	14-sonli maktab	65	4,6	2,0	3,0	1	1,8	0	0,0	0	0,0	0	0,0	0	0,0	0	0,0	1	2,2
27	15-sonli maktab	30	2,1	0,9	3,0	1	4,0	0	0,0	0	0,0	0	0,0	0	0,0	0	0,0	0	0,0
28	16-sonli maktab	100	7,0	3,0	3,0	2	2,0	1	1,0	0	0,0	1	1,0	0	0,0	0	0,0	0	0,0

29	17-sonli maktab	90	6,3	2,7	3,0	2	1,8	0	0,0	0	0,0	0	0,0	1	1,1	0	0,0	1	1,1
30	18-sonli maktab	65	4,6	2,0	3,0	1	1,5	0	0,0	2	2,5	0	0,0	0	0,0	0	0,0	0	0,0
31	20-sonli maktab	60	4,2	1,8	3,0	1	2,3	0	0,0	0	0,0	0	0,0	1	1,7	0	0,0	0	0,0
32	21-sonli maktab	65	4,6	2,0	3,0	2	2,5	1	1,5	0	0,0	0	0,0	0	0,0	0	0,0	0	0,0
33	22-sonli maktab	55	3,9	1,7	3,0	1	2,2	0	0,0	0	0,0	1	1,8	0	0,0	0	0,0	0	0,0
34	24-sonli maktab	87	6,1	2,6	3,0	2	1,7	0	0,0	1	1,1	0	0,0	0	0,0	0	0,0	1	1,1
35	26-sonli maktab	86	6,0	2,6	3,0	2	2,8	1	1,2	0	0,0	0	0,0	0	0,0	0	0,0	0	0,0
36	31-sonli maktab	65	4,6	2,0	3,0	3	4,0	0	0,0	0	0,0	0	0,0	0	0,0	0	0,0	0	0,0
37	36-sonli maktab	55	3,9	1,7	3,0	1	2,2	0	0,0	0	0,0	1	1,8	0	0,0	0	0,0	0	0,0
38	37-sonli maktab	100	7,0	3,0	3,0	2	2,0	0	0,0	0	0,0	1	1,0	1	1,0	0	0,0	0	0,0
39	39-sonli maktab	30	2,1	0,9	3,0		0,0	0	0,0	0	0,0	0	0,0	1	4,0	0	0,0	0	0,0
40	42-sonli maktab	30	2,1	0,9	3,0	1	4,0	0	0,0	0	0,0	0	0,0	0	0,0	0	0,0	0	0,0
41	43-sonli maktab	65	4,6	2,0	3,0	1	1,5	0	0,0	0	0,0	2	2,5	0	0,0	0	0,0	0	0,0
42	44-sonli maktab	30	2,1	0,9	3,0		0,0	0	0,0	0	0,0	0	0,0	0	0,0	0	0,0	1	4,0
43	45-sonli maktab	55	3,9	1,7	3,0	2	4,0	0	0,0	0	0,0	0	0,0	0	0,0	0	0,0	0	0,0
44	46-sonli maktab	30	2,1	0,9	3,0		0,0	1	4,0	0	0,0	0	0,0	0	0,0	0	0,0	0	0,0
45	47-sonli maktab	55	3,9	1,7	3,0	2	4,0	0	0,0	0	0,0	0	0,0	0	0,0	0	0,0	0	0,0

46	48-sonli maktab	30	2,1	0,9	3,0	1	4,0	0	0,0	0	0,0	0	0,0	0	0,0	0	0,0	0	0,0
47	49-sonli maktab	55	3,9	1,7	3,0	2	4,0	0	0,0	0	0,0	0	0,0	0	0,0	0	0,0	0	0,0
48	50-sonli maktab	90	6,3	2,7	3,0	2	1,8	0	0,0	0	0,0	1	1,1	0	0,0	0	0,0	1	1,1
49	53-sonli maktab	30	2,1	0,9	3,0	1	4,0	0	0,0	0	0,0	0	0,0	0	0,0	0	0,0	0	0,0
50	54-sonli maktab	30	2,1	0,9	3,0	1	4,0	0	0,0	0	0,0	0	0,0	0	0,0	0	0,0	0	0,0
51	59-sonli maktab	30	2,1	0,9	3,0	1	4,0	0	0,0	0	0,0	0	0,0	0	0,0	0	0,0	0	0,0
52	60-sonli maktab	30	2,1	0,9	3,0	1	4,0	0	0,0	0	0,0	0	0,0	0	0,0	0	0,0	0	0,0
53	61-sonli maktab	30	2,1	0,9	3,0	1	4,0	0	0,0	0	0,0	0	0,0	0	0,0	0	0,0	0	0,0
54	63-sonli maktab	90	6,3	2,7	3,0	3	2,9	0	0,0	0	0,0	1	1,1	0	0,0	0	0,0	0	0,0
55	66-sonli maktab	30	2,1	0,9	3,0		0,0	0	0,0	0	0,0	1	4,0	0	0,0	0	0,0	0	0,0
56	69-sonli maktab	65	4,6	2,0	3,0	2	2,5	0	0,0	0	0,0	0	0,0	0	0,0	0	0,0	1	1,5
57	71-sonli maktab	30	2,1	0,9	3,0	1	4,0	0	0,0	0	0,0	0	0,0	0	0,0	0	0,0	0	0,0
58	72-sonli maktab	30	2,1	0,9	3,0	1	4,0	0	0,0	0	0,0	0	0,0	0	0,0	0	0,0	0	0,0
59	74-sonli maktab	30	2,1	0,9	3,0	1	4,0	0	0,0	0	0,0	0	0,0	0	0,0	0	0,0	0	0,0
60	1- conli kasb xunar maktabi	125	8,8	3,8	3,0	3	2,4	1	0,8	0	0,0	1	0,8	0	0,0	0	0,0	0	0,0
61	2- conli kasb xunar maktabi	98	6,9	2,9	3,0	2	1,9	0	0,0	0	0,0	0	0,0	2	2,0	0	0,0	0	0,0
62	3- conli kasb xunar maktabi	115	8,1	3,5	3,0	2	1,7	0	0,0	0	0,0	1	0,9	2	1,7	0	0,0	0	0,0

Жами	5391	377	162	3,0	125	2,3	14	0,3	5	0,10	22	0,4	17	0,3	0	0,0	33	0,6